

O‘TKIR HOSHIMOV ROMANLARIDA AYOL OBRAZI TASVIRI

Husanboyeva Shahlo Shuhratjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti 1-bosqich talabasi

Email:shahlohusanboyeva432@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola o‘zbek xalqining taniqli yozuvchisi O‘tkir Hoshimov va uning romanlarida ayollar obrazi tasvirini tahlil qilishga asoslangan. Shuningdek, maqolada ayol obrazining iztirobga to‘la hayoti ,ichki kechinmalari hamda his tuyg‘ulari orqali o‘zbek ayollarining timsoli yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *O‘tkir Hoshimov romanlari,ayol obrazi,urush davri,ayol matonati, „Ikki eshik orasi”romani ,qora amma,Robiya,Qurbon xola,o‘zbek ayollari, „Tushda kechgan umrlar “ romani.*

Kirish. Barchamizga ma’lumki, O‘tkir Hoshimov (1941-2013) o‘zbek xalqining serqirra adibi bo‘lib, o‘zining asarlarida insonlarning turfa taqdirleri,ularning ichki olamini juda katta ustalik bilan yoritib bergan mahoratli ijodkor hisoblanadi.Yozuvchining epik turdagi barcha asarlari syujeti,voqealar sodda va ravon til bilan bayon etilganligi hamda asar qahramonlari juda jonli tasvirlanganligi bilan boshqa ijodkorlar kitoblaridan ajralib turadi.Shuningdek, yozuvchining ijodida o‘ziga xos bir qancha jihatlar bo‘lib,ular, ayniqsa,adibning romanlarida ko‘zga tashlanadi.Ya’ni O‘tkir Hoshimov o‘z romanlarida ayol obrazini shunchalik katta mahorat bilan ochib berganki,asarni mutoala qilgan har qanday kitobxon beixtiyor ularning kechinmalarini ,his-tuyg‘ularini o‘z qalbida his qila oladi.Shuning uchun ham O‘tkir Hoshimovga „So‘z zargari”degan go‘zal ta’rif berilgan.

Asosiy qism. O‘tkir Hoshimovning boy ijodiga nazar tashlaydigan bo‘lsak,uning „Ikki eshik orasi”, „Nur borki,soya bor , „Tushda kechgan umrlar”kabi romanlari mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. „Ikki eshik orasi”romani ijodkor merosining asosiy o‘rnini egallaydi va bu asarda ayollar obraziga alohida e’tibor berilgan. Romandagi ayol obrazlar:Qora amma,Robiya,Ra’no,Munavvar,Bashorat opa,Fotima kelin,Zuhra kelin va boshqalar.Bu qahramonlarning har biri o‘zga bir dunyo,boshqa bir olam.Ularning ba’zilari o‘z hislatlari bilan asarni yanada go‘zallashtirsa,ayrimlari kitobxonning nafratiga sababchi bo‘ladi.Albatta,

Erkin Vohidov aytganidek:„Har kim baxtini o‘z qarichi bilan o‘lchaydi”.Ya’ni hayotda hamma inson turlicha ,hayot esa teng emas. “Ikki eshik orasi” romanidagi ayollar tasvirini tahlil qiladigan bo‘lsak,Qora amma-asardagi asosiy ayol personaj.Uning sabr-matonati dunyo ayollariga o‘rnak bo‘lsa,uning,onalik mehri,taqdiri,ichki kechinmalari har qanday toshbag‘ir insonning ham qalbini larzaga keltirish kuchiga egadir.Qora amma obrazi orqali biz haqiqiy jonkuyar o‘zbek onasi,matonatli o‘zbek ayoli timsolini ko‘rishimiz mumkin.Shu o‘rinda,asardagi bir parcha orqali personajning holatini yoritib

bersak.,, ... Ammam yana jimib qoldi.Nasafining g'ijillashi kuchayib ketdi.Devorga-Kimsan akamning suratiga tezgina qarab qo'ydi-da,xo'rsindi,yana ming'irlab ashula ayta boshladi:

Jon bolam-jonim bolam,
Alloha topshirdim sani,
Ohimga Alloh yetmadi,
Tuproqqa topshirdim sani “.^{ix}

Bu satrlar zahirida bitta-yu bitta o'g'lini urushga jo'natib,yuragining bir qismini farzandiga qo'shib yo'qotgan bir o'zbek onasining alamli taqdiri,farzand dog'ini boshidan kechirayotgan ayolning qanchadan-qancha ko'z yoshlari yotibdi.Ha,bu qo'shiqning har bir harfi o'z farzandlarini urush deb atalmish bir jarga kuzatgan dunyo onalarining ohi,alamli ko'z yoshlari bilan bitilgan.Ona yuragining tubidagi darddan bir parchasi mana shu qo'shiqda jo bo'lgan. Bundan tashqari ,Qora amma asarda o'z farzandining „omonatiga “ hiyonat qilishga majbur bo'lgan ,hatto bu ishi uchun xayolan o'g'lidani kechirim so'ragan obraz sifatida gavlalanadi.

„Ikki eshik orasi” romanidagi yana bir ayol personaj bu Robiya-Kimsanning „omonati”.Bu obraz orqali biz haqiqiy sadoqat va sof muhabbat egasi,metin iroda sohibasi,jasur o'zbek qizi timsolini ko'rishimiz mumkin.Yoshligidan ota-ona mehriga to'yagan yosh qizaloq keyingi hayoti davomida ham urush sababli o'z sevgisiga erisha olmaydi.Kimsan akasining o'limiga ishonmay ,uni uzoq yillar sadoqat bilan kutadi,ammo taqdir taqozosi bilan o'z tutingan tog'asiga turmushga chiqishga majbur bo'ladi.Hatto alla aytmay,beshik tebratmay turib,besh yashar bolaga ona bo'lish darajasiga yetadi.,,...Qulog'ida nuqul bir ohang jaranglaydi:

Uyda kelin yig'laydi,yot bo'ldim deb yor-yor.

Chindan ham yot bo'ldim.Kimsan akamga ,orzu-umidlaringa ,o'zimga.Qiziq, o'zimga ham yotman endi...”^{ix}Bu satrlardan qalbi vayron bo'lgan , barcha orzu-umidlaridan vos kechishga majbur bo'lgan bir qizning chorasiz taqdirini anglash qiyin emas.Yozuvchi Robiya obrazi orqali o'sha paytdagi jamiyat ayol-qizlari urush tufayli o'z yorlaridan ayrilib,hayot sinovlariga bardosh qilib temir iroda sohiblariga aylanganliklari zo'r ustalik bilan chizib berilgan.

O'tkir Hoshimovning Said Ahmad „Romanni loqayd-hayojonsiz o'qib bo'lmaydi.U kitobxonni larzaga solidi.Xalq boshiga kulfatdan boshqa narsa solmagan qonli urushni boshlagan telba urushqoqlarga dil-dilidan qarg'ish yog'diradi”deya yuqori baholagan asari- „Tushda kechgan umrlar” yozuvchining so'nggi romani hisoblanadi.Bu romanda ham ayollar obrazi tasviriga juda katta e'tibor berilgan.Asarda Shahnoza,Qurbonoy xola,Umda kabi ayol personajlar ishtirok etadi.Shahnoza –asardagi asosiy ayol personaj hisoblanadi.U Rustamning sevgan qizi va keyinchalik suyuqli xotiniga aylanadi.Shahnoza Rustamning urushdan qaytishini sabr qilib sadoqat bilan kutadi va bu bilan o'zbek qizlarining sabr-matonatini hamda sadoqatini ochib beradi.Uning hayoti huddi tushdek behalovat



kechadi. Bu personaj o'z turmush o'rtog'ini sevsam ham ,farzandsizlikdan qiynaladi .Albatta, bu holat bir ayol uchun juda og'ir. Bu baxtsizliklarning zamirida shubhasiz, urush va uning insoniyatga keltirgan yomon oqibatlarini yotadi.

Xulosa. O'tkir Hoshimov o'zining barcha romanlarida ayollarni yetakchi obraz sifatida gavdalandiradi. Adib urush paytida erkaklar frontda jang qilsa ,ayollar front ortida jang qilganliklarini o'z asarlarida yoritib bergan. Sabrmatonatda, jasurlikda ,mehnatsevarlikda tengsiz bo'lgan o'zbek ayollarining tarixini qalamga olgan. Robiya ,Shahnoza obrazlari orqali muhabbatga, or-nomusga sadoqat tuyg'ularini yoshlarga anglatmoqchi bo'lgan. Shuningdek, uning romanlaridagi ayollar obrazi tasvirini o'rganish O'zbekistonda uchinchi renessansni qurishda ayol-qizlar ishtirokini oshishiga turtki bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hoshimov. O' O'zbeklar Nurli dunyo nashriyoti T.: 2024. -10-b
2. Hoshimov O' , „Ikki eshik orasi”. Asr oshgan asarlar. Toshkent, 2016.
3. Sarimsoqov B. „Badiiylik asoslari va mezonlari”. Toshkent, 2004.
4. Tushda kechgan umrlar: roman. /O'. Hoshimov; mas'ul muharrir va so'zboshi muallifi A. Samad. -T.: MERIYUS, 2015
5. Hoshimov O'. Tanlangan asarlar. 1 tom. -Toshkent: Sharq, 2009.